

HUQUQBUZARLIKLAR PROFILAKTIKASINI AMALGA OSHIRISHDA TA'LIM MUASSASLARI BILAN HAMKORLIKNI TAKOMILLASHTIRISH

Sorabekov Sarvarbek

*O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi 3-o'quv kursi
kursanti*

Sarvarbek0510@gmail.com

Annotatsiya: *Bu maqolada bugungi kunda Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev tomonidan Huquqbuzarliklar Profilaktikasiga qaratayotgan e'tibori va ular Huqubuzarliklar profilaktika xizmatini asosiy bo'g'in sifatida e'tirof etayotganliklarini va bugungi kunda voyaga yetmaganlar va yoshlar o'rtasidagi huquqbuzarliklar soni kun sayin ortib borayotganligi sababli profilaktika inspektorlari ular o'rtasidagi huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirishda ta'lim muassasalari bilan hamkorlikdagi kuzatilayotgan kamchiliklar va ularni zamonaviy yechimlari haqida so'z yuritiladi.*

Kalit so'zlar: *Profilaktika, Umumiy, Maxsus, Yakka va Viktimologik Profilaktika, Ta'lim muassasalari bilan hamkorlik, Ichki va Idoralararo Hamkorlik, Strategik rejalar, Talabalar o'rtasidagi huquqbuzarliklar*

Аннотация: *В данной статье речь идет о внимании, которое в настоящее время уделяет наш Президент Шавкат Миромонович Мирзиёев профилактике правонарушений, а также о признании службы профилактики правонарушений в качестве основного звена. Учитывая тот факт, что в наши дни количество правонарушений среди несовершеннолетних и молодежи с каждым днем растет, подчеркивается роль инспекторов профилактики в осуществлении профилактических мер среди этой категории граждан. Также рассматриваются существующие недостатки в сотрудничестве с образовательными учреждениями и современные пути их решения.*

Ключевые слова: *Профилактика, Общая профилактика, Специальная профилактика, Индивидуальная профилактика, Виктимологическая профилактика, Сотрудничество с образовательными учреждениями, Внутреннее и межведомственное сотрудничество, Стратегические планы, Правонарушения среди студентов*

Annotation: *This article discusses the attention currently being paid by our President, Shavkat Miromonovich Mirziyoyev, to the prevention of offenses, and how the Offense Prevention Service is recognized as a key component in this*



process. It also addresses the growing number of offenses committed by minors and youth, and highlights the role of prevention inspectors in implementing preventive measures among them. The article examines existing shortcomings in cooperation with educational institutions in this regard, as well as modern solutions to these issues.

Keywords: *Prevention, General prevention, Special prevention, Individual prevention, Victimological prevention, Cooperation with educational institutions, Internal and interdepartmental cooperation, Strategic plans, Offenses among students*

Bugungi rivojlanib borayotgan zamonda O'zbekiston Respublikasida jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarliklarni barvaqt oldini olish bo'yicha ishlar juda jadal davom ettirilmoqda . bunda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan ham katta-katta tashabbuslar olib bormoqda . Huquqbuzarliklarni oldini olish jamiyatda qonuniylikni ta'minlashning asosiy vositasidir. Yoshlar orasida sodir etiladigan huquqbuzarliklarning oldini olishda ta'lim muassasalari muhim rol o'ynaydi. Shu bois, ta'lim muassasalari bilan huquqni muhofaza qiluvchi organlar o'rtasidagi hamkorlikni takomillashtirish dolzarb vazifadir.² Hozirda O'zbekiston Respublikasi axolisining demografik jihatidan yoshlar axolining ulushi juda katta hisoblanadi. Xususan, hozirda O'zbekistonda 2024-2025 o'quv yilida umumiy o'rta ta'lim maktablarida jami o'quvchilar soni 6,5 milliondan ortiqni tashkil etdi . Bugungi kunda, 2025-yil 22-avgust holatiga ko'ra, O'zbekistonda jami 1,3 milliondan ortiq talaba oliy ta'lim muassasalarida tahsil olmoqda. Bundan ko'rishimiz mumkinki umuman olganda O'zbekiston Respublikasida 8 million ga yaqin yoshlar va bolalar Ta'lim muassasalarida tahsil olmoqdalar .Ular O'zbekiston axolisini sal kam 1/5 qismini tashkil etadi. Demak ta'lim muassasalarida huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirish asosiy vazifa sifatida qaralishi zarur.³

Huquqbuzarliklarni oldini olish tizimida ta'lim muassasalari quyidagi funktsiyalarni bajaradi:

- **Huquqiy madaniyat va axloqiy qadriyatlarni shakllantirish:**
Yoshlarni qonunlarga hurmat ko'rsatishga o'rgatish,
- **Psixologik va ijtimoiy yordam ko'rsatish:**

^{2 2} Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi —Huquqbuzarliklar Profilaktikasi|| darsligi

³ Muhammedovning — Huquqshunoslik asoslari — asari



Muammoli o'quvchilar bilan ishlash orqali jinoyatchilikka moyillikni kamaytirish,

- **Targ'ibot va profilaktika tadbirlarini amalga oshirish:**

Seminar, trening va boshqa faoliyatlar orqali huquqbuzarlikka qarshi kurashish.

Yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklarning oldini olish zamonaviy jamiyatda eng dolzarb ijtimoiy-huquqiy muammolardan biri bo'lib, bu boradagi samarali faoliyat ta'lim tizimi bilan uzviy bog'liqdir. Ta'lim muassasalari nafaqat bilim berish, balki shaxsning huquqiy ongini shakllantirish, ijtimoiy normalarga rioya qilish ko'nikmalarini tarbiyalash, ma'naviy qadriyatlarni singdirish orqali jamiyatda huquqbuzarliklarning oldini olishda faol ishtirok etadi.

Huquqbuzarliklar profilaktikasi — bu jamiyatda qonunbuzarliklarning sodir bo'lishining oldini olishga qaratilgan huquqiy, ma'naviy, ijtimoiy va tashkiliy chora-tadbirlar tizimidir. U shaxsning huquqiy madaniyatini oshirish, jinoyatga olib keluvchi omillarni aniqlash va ularni bartaraf etishga qaratilgan.⁴

Profilaktika quyidagi shakllarda amalga oshiriladi:

- **Umumiy profilaktika** — barcha fuqarolar, ayniqsa yoshlar orasida huquqiy targ'ibot va tushuntirish ishlari olib borish;

- **Maxsus profilaktika** — muayyan shaxslar (masalan, ijtimoiy xavfli holatda bo'lgan shaxslar) bilan individual ishlash

- **Individual profilaktika** — jinoyat sodir etishi mumkin bo'lgan fuqarolarni aniqlab, ular bilan maqsadli ishlash.

Ta'lim muassasalari — o'quvchilarda qonunga itoatkorlik, ijtimoiy mas'uliyat va axloqiy fazilatlarni shakllantirish orqali huquqbuzarliklarning oldini olishda muhim sub'yekt hisoblanadi. Ular quyidagi yo'nalishlarda ish olib boradilar:

Huquqiy targ'ibot: o'quvchilarga O'zbekiston Respublikasi qonunlarini o'rgatish, huquq va majburiyatlari haqida tushuncha berish.

Psixologik-pedagogik ishlar: ijtimoiy xavfli holatdagi bolalar bilan individual ishlash, muammoli oilalarning farzandlariga e'tibor qaratish.

Hamkorlik: mahalliy hokimiyat, ichki ishlar organlari, nodavlat tashkilotlar va ota-onalar bilan hamkorlik qilish orqali xavfli holatlarning oldini olish.⁵

1. ⁴ Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi —Huquqbuzarliklar Profilaktikasi|| darsligi

2. ⁵ O'zbekiston Respublikasi —Voyaga Yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risidagi|| qonuni



O'zbekiston tajribasida ta'lim muassasalari bilan huquqni muhofaza qiluvchi organlar o'rtasidagi hamkorlik hali yetarli darajada tizimlashtirilmagan. Asosiy muammolar quyidagilardan iborat:

Axborot almashish mexanizmining yetishmasligi;

Kadrlar salohiyatining pastligi — psixolog, huquqshunos, ijtimoiy pedagoglar soni va malakasi yetarli emas;

Huquqiy targ'ibot ishlarining sustligi — o'quvchilarning huquqiy madaniyati va mas'uliyat hissi past;

Oilaviy muhit va ijtimoiy beqarorlik — ko'plab huquqbuzarliklar oilaviy muhitdagi beqarorlik bilan bog'liq bo'lmoqda.

2025-yil holatiga ko'ra, O'zbekistonda **1,3 milliondan ortiq talaba** oliy ta'lim muassasalarida tahsil olmoqda. Jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimida esa yoshlar orasida sodir etilgan jinoyatlar umumiy jinoyatlar sonining **12–14 foizini** tashkil etayotgani qayd etilgan (rasmiy manbalarda to'liq sonlar ochiq qilinmagan).⁶

Shuningdek, 2023-yilda huquqiy targ'ibot tadbirlarining umumiy soni 1 097 tani tashkil etgan bo'lib, bu boradagi ishlar jadallashayotganini ko'rsatadi. Ammo bu ko'rsatkichlar hali kutilgan natijani bermayotganining sababi — ta'lim tizimi bilan huquqni muhofaza qiluvchi organlar o'rtasidagi real hamkorlikning pastligidir.

Huquqbuzarliklarning oldini olish samaradorligini oshirish uchun quyidagi ilmiy asoslangan takliflar ilgari suriladi:

Elektron axborot almashish tizimini yaratish — maktab, kollej va oliy ta'lim muassasalari, IIB, MFY va ijtimoiy xizmatlar o'rtasida real vaqt rejimida axborot almashinuvini tashkil etish;

Huquqiy-pedagogik platforma yaratish — har bir o'quv muassasasida doimiy faoliyat yurituvchi “Huquqiy maslahat va profilaktika markazi” tashkil etish;

Kadrlar salohiyatini oshirish — pedagoglar, ijtimoiy xodimlar va psixologlar uchun muntazam malaka oshirish kurslarini joriy etish;

Monitoring va tahlil tizimini joriy etish — har bir ta'lim muassasasida huquqbuzarlik xavfi bo'lgan o'quvchilarni aniqlash va individual reabilitatsiya dasturlari tuzish;

Oila bilan aloqani kuchaytirish — ota-onalar bilan tizimli, huquqiy-psixologik treninglar o'tkazish.

3. ⁶ O'zbekiston Respublikasi Statistika Agentligi stat.uz sayti



Biz yuqorida ta’lim muassasalari bilan hamkorlikni talab etadigan holatlari va Huquqbuzarliklar Profilaktikasini amalga oshirishda Ta’lim muassasalari bilan hamkorlikni takomillashtirishning ahamiyatiga biroz to’xtaladigan bo’lsak bu juda ham muhim hisoblanadi. Chunki yuqorida ham ta’kidlab o’tganimizdek O’zbekiston Respublikasida ta’lim muassasalarida 8 millionga yaqin bolalar va yoshlar tahsil olmoqda.⁷ Bugungi kunda Ta’lim muassasalarda talabalar o’rtasidagi huquqbuzarliklarni oldini olish va jinoyatchilikka qarshi kurashish borasida olib borilayotgan ishlarni takomillashtirish bo’yicha chora-tadbirlar ahamiyati bugungi kunda juda muhim hisoblanadi. Chunki hozirgi kunda voyaga yetmaganlar va yoshlar o’rtasida jinoyatchilik darajasi oshib bormoqda . Buni misoli sifatida biz quyidagi statistikalarda ko’rishimiz mumkin.

O’zbekiston Respublikasi Statistika agentligining stat.uz internet

saytidagi **“Jinoyat sodir etganligi aniqlangan 13 – 15 yoshdagi shaxslar soni”** haqidagi ma’lumotlarga ko’ra statistika 2019-yildan buyon o’sib kelmoqda.

	Davlat	2019	2020	2021	2022	2023
	O’zbekiston Respublikas	129	188	444	687	744

“Jinoyat sodir etganligi aniqlangan 18 – 24 yoshdagi shaxslar

soni” haqidagi malumotlarga kora bu statistika ham 2019 yildan buyon o’sib kelmoqda:⁸

	Davlat	2019	2020	2021	2022	2023
	O’zbekiston Respublikasi	658	749	124	127	133

4. ⁷ Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi —Ichki ishlar organlarida huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyatini ma’ruzalar kursi

5. ⁸ O’zbekiston Respublikasi Statistika Agentligi stat.uz sayti



Ushbu yuqoridagi statistikadan ham ko'rishimiz mumkinki voyaga yetmaganlar yoshlar o'rtasida jinoyatchilik darajasi o'sishda davom etmoqda va bu xavotirli ko'rsatkich hisoblanadi. Buni oldini olish umuman olganda huquqbuzarliklarni oldini olish va jinoyatchilikka qarshi kurashish kerakli bu borada esa albatta ta'lim muassasalari bilan hamkorlikni rivojlantirish eng to'g'ri yo'ldan biri ekanligini hisobga olib harakat qilishimiz zarur hisoblanadi. Shuning uchun ham Ichki Ishlar Organlari xodimlari huquqbuzarliklarni oldini olish borasida Huquqbuzarliklar Profilaktikasi to'g'risidagi qonunda belgilangan Huquqbuzarliklar profilaktikasining Umumiy, Maxsus, Yakka tartibdagi va Viktimologik profilatikalaridan foydalangan holda ushbu chora-tadbirlardan foydalanishi kerak .

XULOSA

Huquqbuzarliklarning profilaktikasi jamiyatda qonun ustuvorligini ta'minlash va fuqarolik ongini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi. Ayniqsa, yoshlar orasida sodir etilayotgan huquqbuzarliklarning oldini olish dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Shu nuqtai nazardan, huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirishda ta'lim muassasalari bilan hamkorlikni kuchaytirish katta ahamiyatga ega.⁹

Ta'lim muassasalari — bu yosh avlodni tarbiyalash, ularning dunyoqarashi, huquqiy madaniyati va ijtimoiy mas'uliyatini shakllantirishda asosiy ijtimoiy institutlardan biridir. Shu sababli, maktab, kollej va oliy ta'lim muassasalari hamda ichki ishlar organlari, mahalla fuqarolar yig'inlari, voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha komissiyalar va boshqa ijtimoiy institutlar o'rtasidagi hamkorlik tizimli va uzviy bo'lishi lozim.¹⁰

Bunday hamkorlik quyidagilar orqali amalga oshirilishi mumkin:

- muntazam ravishda huquqiy targ'ibot va tushuntirish ishlari olib borish;
- psixologik va pedagogik xizmatlar faoliyatini kuchaytirish;
- xavf guruhiga kiruvchi o'quvchilar bilan individual ishlash;
- sport, madaniy va ijtimoiy loyihalar orqali yoshlarni bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish;
- ta'lim muassasalarida “Huquqiy bilimlar maktabi”, “Huquqiy maslahat kunlari” kabi loyihalarni joriy etish.

Shuningdek, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda huquqiy bilimlarni interaktiv shaklda o'rgatish, ijtimoiy

⁹ Muhammedovning — Huquqshunoslik asoslari — asari

¹⁰ O'zbekiston Respublikasi —Voyaga Yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risidagi qonuni



tarmoqlarda profilaktik materiallarni keng yoyish va ota-onalar bilan hamkorlikni kuchaytirish ham muhim omillardandir.

Xulosa qilib aytganda, huquqbuzarliklar profilaktikasida ta'lim muassasalari bilan hamkorlikni takomillashtirish nafaqat yoshlar orasida qonunbuzarliklar sonini kamaytiradi, balki ularning ongli fuqarolar sifatida shakllanishiga, jamiyatda ijtimoiy barqarorlik va xavfsizlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Bu esa o'z navbatida, mamlakat taraqqiyoti va barqaror rivojlanishining asosiy kafolatlaridan biridir.

FOYDALANILGAN ADABYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Statistika Agentligi stat.uz sayti
2. O'zbekiston Respublikasi Huquqbuzarliklar Profilaktikasi to'g'risidagi qonuni
3. Muhammedovning — Huquqshunoslik asoslari — asari
4. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi
5. O'zbekiston Respublikasi —Voyaga Yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risidagi qonuni
6. Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi —Huquqbuzarliklar Profilaktikasi darsligi
7. Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi —Ichki ishlar organlarida huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyati ma'ruzalar kursi .

